



MUKAMMAL ILM - TARAQQIYOT POYDEVORI

Har bir mamlakatning iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi, hamda ijtimoiy-siyosiy jixatdan yuksalishi bevosita uning bilimli va malakali kadrlari bilan bo'g'liqdir. Shu bois har bir davlat o'zining ilm-fan sohasini rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tezkor joriy etib borish mamlakatni jadal rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zero hech bir marrani ilm va tafakkursiz zabt etib bolmaydi.

Bu yo'lda oliy toifali bilimdon kadrlarni tayorlab berish respublikamizdagi har bir oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'satayotgan professor va pedagog xodimlarining oldidagi muhim vazifalaridan biridir.

2018-2019 o'quv yillarida Andijon viloyatida 4 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan: **Andijon Davlat Universiteti, Andijon Davlat tibbiyot instituti, Andijon Mashinasozlik instituti va Toshkent Agrar universitetining Andijon filiali** shular jumlasidandir. Ushbu oliygohlarning 3 tasi Andijon shahrida, 1 tasi Andijon tumanida joylashgan.



*Andijon Davlat Universitetiga
1939 yili asos solingan.
Talabalar soni - 10229 nafar*



*Andijon Davlat Tibbiyot
institutiga 1955 yil 2-avgust
sanasida asos solingan.
Talabalar soni - 3922
nafar*




*Andijon Mashinasozlik
institutiga 1995 yilda asos
solingan.
Talabalar soni - 3814 nafar*



*Toshkent Agrar
universitetining Andijon
filialiga 1964 yilda asos
solingan.
Talabalar soni- 3753 nafar.*

Andijon viloyatidagi ushbu oliygohlarda jami **21718** nafar talabalar ta'lim olmoqdalar. Ularning 10229 nafari (47,1 %) ni qizlar tashkil etadi.

Talabalarning 18643 nafari kunduzgi, 3075 nafari sirtqi bo'limda ta'lim olmoqdalar. Davlat granti bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar 5006 nafarni, ya'ni barcha talabalarning 23,1 % ni tashkil etadi.



2018-2019 o'quv yilida ta'lim olayotgan talabalar soni 21718 nafarni tashkil etgan holda, o'tgan 2014-2015 o'quv yili bilan taqqoslaganda ularning soni 131,5 % ga, 2015-2016 o'quv yiliga nisbatan 125,4 % , 2016-2017 o'quv yiliga nisbatan 123,3 %, 2017-2018 o'quv yiliga nisbatan 113,0 % ga ortganligini kuzatish mumkin.



2018-2019 o'quv yilida viloyat bo'yicha 5801 nafar talabalar qabul qilindi. Ularning 3898 nafari (67,2 %) kunduzgi bolimda, qolgan 1903 nafari (32,8 %) sirtqi bo'limda ta'lim oladilar. Davlat granti asosida qabul qilingan talabalar 927 nafar (16,0 %) ni tashkil etadi.

Jami qabul qilingan talabalarning 3367 nafari (58,0%) qiz bolalar hissasiga to'g'ri keladi. Ularning 1998 nafari (51,3%) kunduzgi, qolgan 1369 nafari sirtqi bo'limga qabul qilingan.


2018 yilda 4791 nafar talabalar bitirdilar. Ularning 1302 nafari (27,2%) davlat granti asosida bitirgan talabalar hisoblanadi. Jami bitiruvchilarning 1943 nafari (40,6 %) ni qizlar tashkil etadi.

2019 yilda 4349 nafar talabalarning bitirishi kutilmoqda.



2018-2019 o'quv yilida viloyat oliygohlaridagi jami 21718 nafar talabalarning 10419 nafari (48,0 %) Gumanitar soha yo'nalisida, 563 nafari (2,6 %) Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq yo'nalishida, 3460 nafari (15,9 %) Ishlab chiqarish texnika soha yona'lishidada, 3269 nafari (15,0%) Qishloq va suv xo'jalik sohasi yo'nalishida, 3703 nafari (17,1 %) Sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishida va qolgan 304 nafari (1,4 %) xizmatlar sohasi yo'nalishida ta'lim olmoqdalar.

Oliy ta'lim muassasalarini ta'lim sohalari bo'yicha taqsimlanishi



2018-2019 o'quv yilida viloyat oliygohlaridagi jami 21718 nafar talabalarning 21182 nafari, ya'ni 97,5 % **bakalavriat** bosqichida ta'lim olmoqdalar. Ularning 4821 nafari (22,8 %) ni davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalar tashkil etadi. Umumiy bakalavriyat yo'nalishidagi talabalarning 10027 nafari (47,3%) qizlardan iborat.

Bakalavriat bosqichidagi talabalarning 18107 nafari kunduzgi bo'limda, qolgan 3075 nafar talaba sirtqi bo'limda o'qimoqdalar.

Yangi o'quv yilida bakalavriat bosqichiga 5529 nafar talabalar qabul qilindi. Ularning 3264 nafari qizlar tashkil etadi. Umumiy talabalar sonidan 868 nafari davlat granti asosida qabul qilingan. Kunduzgi bo'limga 3626 nafar, sirtqi bo'limga 1903 nafar talabalar qabul qilingan.


2018 o'quv yilda 4636 nafar talabalar bakalavriat bosqichini tamomladilar. Bitiruvchilar umumiy sonidan 1244 nafari davlat granti bo'yicha ta'lim olgan talabalar hisoblanadi.




2018-2019 o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining *magistratura bosqichida* 536 nafar talaba ta'lim olmoqdalar. Ularning 185 nafari davlat granti bo'yicha o'qimoqdalar. Umumiy magistrlardan 202 nafarini talaba qizlar tashkil etadi.

Yangi o'quv yilida 272 nafar talaba magistratura bosqichiga qabul qilindi. Ularning 59 nafari, ya'ni 21,7% davlat granti bo'yicha qabul qilindi. Umumiy qabul qilingan talabalardan 103 nafari ya'ni 37,9 % magistrant qizlardan iborat.

2018 yilda 155 nafar magistr talabalar oliygohni bitirdilar. Ushbu talabalarning 58 nafari davlat granti bo'yicha tamomladilar. Jami bitiruvchilarning 60 nafarini, ya'ni 38,7 % ni talaba qizlar tashkil etadi. 2019 yilda 172 nafar magisrtantlarning bitirishi kutilmoqda.




2018-2019 o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 1825 nafar (asosiy shtatdagi xodimlar) professor-o'qituvchi xodimlar talabalarga ta'lim bermoqdalar. Ularning 826 nafarini ayollar tashkil etadi. Umumiy pedagog xodimlarning 80 nafari fan doktori, 405 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga egadirlar. 53 nafar padagog xodimlar professor va 266 nafari dotsent ilmiy unvoniga ega.



Bundan tashqari 65 nafar pedagog xodimlar talabalarga informatika va komp'yuter texnologiya fanidan ta'lim bermoqdalar. Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarni axborot-kommunikasiya texnologilarini puxta egallashlari uchun 47 ta komp'yuter sinflari mavjud. Ushbu sinflar 901 ta komp'yuter, 4 ta video proektor, 3 ta electron doska va 3 ta interaktiv doskalar bilan jixozlangan.

2018-2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar soni o'tgan 2014-2015 o'quv yiliga nisbatan 280 nafarga, 2015-2016 o'quv yiliga nisbatan 144 nafarga, 2016-2017 o'quv yiliga nisbatan 168 nafarga, 2017-2018 o'quv yiliga nisbatan 72 nafarga ortgan.

Oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar soni (nafar)



O'zbekiston Respublikasi

Davlat statistika qo'mitasi

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Aloqa uchun telefon :

0371-230-81-74;

0374-228-29-70;

